




YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilda Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 36 538,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yil bilan taqqoslaganda 3,0 %ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 111,5 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 %ga yetdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan %da
		2019- yil	2020- yil	
	I. YaHM	31 818,4	36 538,9	103,0
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 105,5	35 244,2	103,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 712,9	1 294,7	102,7
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 105,5	35 244,2	103,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10 896,7	12 583,8	104,7
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	8 259,2	10 215,9	102,9
	sanoat	6 426,3	7 986,0	101,7
	qurilish	1 832,9	2 229,9	107,2
	Xizmatlar	10 949,6	12 444,5	101,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 439,7	2 807,7	101,0

		<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan %da</i>
		<i>2019- yil</i>	<i>2020- yil</i>	
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 923,7	2 132,1	101,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	6 586,2	7 504,7	101,4

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 9 651,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 %ga yuqoridir.



Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va mutlaq o'sish sur'atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,5 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,5 %ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 35,7 %ni, sanoat tarmog'i – 22,7 %ni, qurilish – 6,3 %ni va xizmatlar sohasi – 35,3 %ni tashkil qildi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan %da)


		2019- yil	2020- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	94,6	96,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	5,4	3,5
	II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi	36,2	35,7
	Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)	27,4	29,0
	sanoat	21,3	22,7
	qurilish	6,1	6,3
	Xizmatlar	36,4	35,3
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,1	8,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,4	6,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	21,9	21,3





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan %da)



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,7 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 35,7 %), sanoatda – 101,7 % (22,7 %), qurilishda – 107,2 % (6,3 %), xizmatlar sohasida – 101,4 % (35,3%)ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 101,0 % (8,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 101,8 % (6,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida – 101,4 % (21,3 %)dan iborat bo'ldi.




YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)




2020- yilda YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan %da)



2020- yilda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 111,5 %ni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 122,2 % va qurilishda – 113,5 % qayd etildi.



YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan %da)



YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)

2020– yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 67,9 %ni tashkil qildi (2019 yil - 68,3 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.

